«Uzbekistan Airways» AJ rahbar xodimlar uchun kiberxavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘quv seminarlari turkumini boshladi

2026 28 Aprel

Bugun AJ Direksiyasi binosida «Kiberxavfsizlikni ta’minlash va maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish» mavzusida ixtisoslashtirilgan seminarlar turkumining ochilishi bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda AJning muhim axborot infratuzilmasini himoya qilish bo‘yicha ichki reglamentlariga muvofiq tashkil etildi.

Mashg‘ulotlarning birinchi kuni 2026-yildagi dolzarb kibertahdidlar tahlili, ijtimoiy muhandislikka qarshi kurashish usullari hamda rahbarlarning shaxsga doir ma’lumotlar daxlsizligi uchun huquqiy javobgarligi masalalariga bag‘ishlandi. Maxfiy ma’lumotlar sizib chiqishining oldini olish va tashkilotning biznes-jarayonlari uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha amaliy holatlarga alohida e’tibor qaratildi.



Ushbu o‘quv tadbirlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad - top-menejment va tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari o‘rtasida «kibergigiyena» darajasini oshirishdan iborat. Bu esa butun kompaniyaning raqamli barqarorligi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim dasturi 29 va 30-aprel kunlari ham davom etadi. Keyingi kunlarda ishtirokchilar axborot infratuzilmasi obyektlarini texnik himoya qilish va insidentlarga tezkor chora ko‘rish algoritmlarini ko‘rib chiqadilar. Seminarlar yakuni bo‘yicha mas’ul shaxslarning tayyorgarlik darajasi baholanadi.

AJ zamonaviy standartlarni joriy etgan holda hamda o‘z mijozlari va hamkorlari manfaatlarini yuqori darajada himoya qilishni ta’minlab, axborot xavfsizligi tizimini

takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlarni davom ettiradi.